

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

QARSHI MUHANDISLIK-IQTISODIYOT INSTITUTI

"TASDIQLAYMAN"
Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti
O.SH.Bazarov
2024 yil



Ro'yhatga olindi № 05/05/0015
"27" iyun 2024 yil

**BUXGALTERIYA HISOBII
FANINING O'QUV DASTURI**

Bilim sohasi: 200000 – Ijtimoiy soha, iqtisod va huquq
Ta'lim sohasi: 230000 – Iqtisod
Ta'lim yo'nalishi: 5230100 – Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo'yicha)

Qarshi 2024-yil

Fan/modul kodi ACCOU6	O'quv yili 2024-2025	Semestr 9	Kreditlar 6	
Fan/modul turi Majburiy	Ta'lim tili O'zbek		Haftadagi dars soatlari 4	
1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	Buxgalteriya hisobi	18	162	180
2.	<p style="text-align: center;">I. Fanning mazmuni</p> <p>Fanni o'qitishdan maqsad – talabalarda buxgalteriya hisobining ob'ektlari (xo'jalik mablag'lari va ularning kelib chiqish manbalari), ularning xo'jalik yuritish jarayonidagi harakati, xo'jalik muomalalarini hisobga olish, ularni hujjatlashtirish va umumlashtirish, xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning mulkiy, moliyaviy faoliyati to'g'risidagi to'liq ishonarli ma'lumotlarni shakllantirish hamda xalqaro moliyaviy hisobot standartlari asosida taqdim etish, moliyaviy va boshqaruv hisobini tashkil qilish, uning normativ huquqiy asoslari bo'yicha yo'nalishiga mos bilim, kunikma va malaka shakllantirish hisoblanadi.</p> <p>Fanning vazifasi - talabalar xo'jalik yurituvchi sub'ektlar mablag'lari, ularning tashkil topish manbalarining xarakatini to'g'ri tashkil ettirish, hisobotlarni tuzish, moliyaviy hisobot ma'lumotlari shaffofligini ta'minlash, boshqa sub'ektlar bilan hisob siyosatini to'g'ri tashkil etilishini qonunlar, qarorlar va boshqa normativ-hujjatla asosida o'rganishlari va o'zlashtirishlari, bilim, kunikma va malakalar shakllanishi hisoblanadi.</p> <p style="text-align: center;">II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)</p> <p style="text-align: center;">II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:</p> <p>1-mavzu. "Buxgalteriya hisobi" faniga kirish. Buxgalteriya balansi. Schyotlar tizimi va ikkiyoqlama yozuv. Biznes jarayonlari va ularni hisobga olish. Hujjatlashtirish va inventarizatsiya. Buxgalteriya hisobining registrlari va shakllari</p> <p>Buxgalteriya hisobining paydo bo'lishi va rivojlanishi. Xo'jalik hisobi to'g'risida tushuncha va uning turlari. Xo'jalik hisobi turlarida qo'llaniladigan o'lchov birliklari. Buxgalteriya hisobining predmeti, metodi va tamoyillari. Buxgalteriya hisobining funksiya va vazifalari. Xo'jalik subyektida buxgalteriya hisobini tashkil etish.</p>			

Buxgalteriya balansi to'g'risida tushuncha va uning tuzilishi. Buxgalteriya balansi qismlarining va moddalarining ta'rifi. Buxgalteriya balansining turlari. Xo'jalik muomalalari ta'sirida balansda ro'y beradigan o'zgarishlar. Xo'jalik mablag'lari va uning tashkil topish manbalari.

Schyotlar tizimi haqida tushuncha. Schyotlar rejasi va schetlarning turkumlanishi. Schyotlarning turkumlanishi. Asosiy schyotlar. Tartibga soluvchi schyotlar. Taqsimlovchi schyotlar. Kalkulatsiya va taqqoslovchi schyotlar.

Ikki yoqlama yozuvning mazmuni va uning qo'lanilishi. Sintetik va analitik hisob. Buxgalteriya hisobi schetlari ma'lumotlarini umumlashtirish. Schetlar rejasini tuzish va qo'llashning xorij amaliyoti.

Biznes jarayonlari ahamiyati. Qiymat o'lchovining mohiyati va ahamiyati. Ta'minot jarayonining hisobi. Ishlab chiqarish jarayonining hisobi. Sotish jarayonining hisobi.

Hujjatlar va ular haqida tushuncha. Hujjatlarning turlari. Hujjatlar rekvizitlari va ularni rasmiylashtirish. Hujjatlarning aylanishi.

Inventarizatsiya haqida tushuncha, uning ahamiyati va turlari. Inventarizatsiya o'tkazish va natijasini rasmiylashtirish tartibi.

Buxgalteriya hisobi registrlari haqida tushuncha va ularning ahamiyati. Buxgalteriya hisobi registrlarining turlari, ularni yuritish tartibi. Buxgalteriya hisobi registrlaridagi xato yozuvlarni tuzatish tartibi. Buxgalteriya hisobining shakllari.

2-mavzu: Pul mablag'lari va valyuta operatsiyalari hisobi. Mehnat va ish haqi hisobi. Tovar-moddiy zahiralari hisobi. Investitsiyalar hisobi. Asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar hisobi

Pul mablag'lari va valyuta operatsiyalari hisobining vazifalari. Kassa muomalalarini hisobga olish. Kassadagi naqd pullarni inventarizatsiya qilish va natijalarini rasmiylashtirish tartibi. Banklarda hisob-kitob schyotlarini ochish tartibi. Naqd pulsiz hisob-kitoblarni tashkil etish shakllari. Hisob-kitob va chet el valyutasi schyotlaridagi pul mablag'lari bo'yicha muomalalar hisobi. Bankdagi maxsus schyotlardagi pul mablaglari hisobi.

Mehnat va ish haqini hisobga olishning asosiy vazifalari. Mehnatga oid munosabatlarni tartib solish. Mehnatga haq to'lashni tashkil etish tizimlari va shakllari. Mehnat haqi hisoblashni hujjatlashtirish. Ish haqi va boshqa to'lovlarni hisoblash. Jismoniy shaxslarning ish haqidan ushlanmalari hisobi. Hisobdor shaxslar bilan hisob-kitoblari hisobi. Xodimlar bilan boshqa muomalalar bo'yicha hisobkitoblari hisobi.

Tovar-moddiy zaxiralar hisobini tashkil etish. Tovar-moddiy zaxiralarni turkumlash va baholash. Tovar-moddiy zaxiralarni hisobga olish tizimlari. Materiallar kirimi va sarflanishini hisobga olish hamda hujjatlashtirish. Inventar va xo‘jalik jihozlari hisobining xususiyatlari. Qayta ishlashga berilgan xomashyo bilan bog‘liq operatsiyalarni buxgalteriya hisobida aks ettirish tartibi. Tovar-moddiy zaxiralar inventarizatsiyasi.

Xo‘jalik yurituvchi sub‘ektlarda investitsiyalar hisobini tashkil etish. Investitsiyalarni turkumlash va baholash. Uzoq muddatli investitsiyalar hisobini yuritish tartibi. Qisqa muddatli investitsiyalar hisobi. Dividendlar hisobi. Kapital qo‘yilmalar hisobi.

Asosiy vositalar hisobining ahamiyati va vazifalari. Asosiy vositalarni turkumlash va baholash. Asosiy vositalar kirimini hisobga olish. Asosiy vositalar harakatini hujjatlashtirish. Asosiy vositalar ta‘mirini hisobga olish. Asosiy vositalar amortizatsiyasi (eskirishi) hisobi. Asosiy vositalarni hisobdan chiqarishni aks ettirish tartibi. Nomoddiy aktivlar to‘g‘risida tushuncha va ularning turkumlanishi.

Nomoddiy aktivlarning kelib tushishi. Gudvill hisobining xususiyatlari. Nomoddiy aktivlar amortizatsiyasi (eskirishi) hisobi. Nomoddiy aktivlarni qayta baholash. Nomoddiy aktivlarning turlicha hisobdan chiqarishni hisobga olish.

3-mavzu: Boshqaruv hisobini tashkil qilish va ustama xarajatlar hisobi.

Tayyor mahsulot va uning sotilishini hisobga olish. Xususiy kapital hisobi. Majburiyatlar hisobi

Boshqaruv hisobi va uning funksiyalari. Xarajatlarning turkumlanishi va ular hisobining vazifalari. Xarajatlarni baholash va xarajatlar dinamikasi. Mahsulot tannaxini kalkulyatsiya qilishning usullari. Kompleks ishlab chiqarish va qo‘shimcha mahsulot xarajatlarini hisobi. Ustama xarajatlari hisobi.

Tayyor mahsulot haqida tushuncha va uning hisobini tashkil etish. Tayyor mahsulotni ombordagi va buxgalteriyadagi hisobi. Mahsulot va xizmatlar sotish jarayonining hisobini yuritish.

Xususiy kapital hisobining maqsad hamda vazifalari. Ustav kapitali shakllanishi va o‘zgarishini hisobda aks ettirish. Qo‘shilgan varezerv kapitali harakatini hisobda aks ettirish. Maqsadli tushumlarni buxgalteriya hisobida aks ettirish tartibi. Kelgusi xarajatlar va to‘lovlar rezervlari hisobi.

Majburiyatlarning iqtisodiy mohiyati va mazmuni. Xo‘jalik yurituvchi subyektlarda olingan schyotlar va majburiyatlar hisobining vazifalari. Majburiyatlarning yuzaga kelishi va tan olinishi holatini buxgalteriya hisobida aks ettirish. Xo‘jalik yurituvchi subyektlarda joriy va uzoq muddatli

majburiyatlar hisobi. Xo‘jalik yurituvchi subyektlarda olingan kreditlar hisobini yuritish.

4-mavzu: Moliyaviy natijalar hisobi. Moliyaviy hisobotlarni tuzish va taqdim etish

Moliyaviy natijalar hisobining maqsadi hamda vazifalari. Mahsulot sotishdan olingan yalpi foyda (zarar) hisobi. Asosiy faoliyatdan olingan boshqa daromadlar hisobi. Davr xarajatlari hisobi. Moliyaviy faoliyatdan olinadigan daromadlar hisobi. Moliyaviy faoliyat bo‘yicha xarajatlar hisobi. Favqulodda foyda va zararlar hisobi. Yakuniy moliyaviy natija hisobi.

Moliyaviy hisobotning maqsad va vazifalari. Moliyaviy hisobotlarini tuzish va taqdim etish. Buxgalteriya balansini tuzish tartibi. Moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobotni tuzish va taqdim etish tartibi. Pul oqimlari to‘g‘risidagi hisobotni taqdim etish tartibi. Xususiy kapital to‘g‘risidagi hisobotni tuzish. Yillik moliyaviy hisobotga tushuntirish.

III. Amaliy mashg‘ulotlari buyicha kursatma va tavsiyalar

Amaliy mashg‘ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. “Buxgalteriya hisobi” faniga kirish. Buxgalteriya balansini. Schyotlar tizimi va ikkiyoqlama yozuv.

2. Biznes jarayonlari va ularni hisobga olish. Hujjatlashtirish va inventarizatsiya. Buxgalteriya hisobining registrlari va shakllari.

3. Pul mablag‘lari va valyuta operatsiyalari hisobi. Mehnat va ish haqi hisobi. Tovar-moddiy zahiralari hisobi. Investitsiyalar hisobi. Asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar hisobi.

4. Boshqaruv hisobini tashkil qilish va ustama xarajatlar hisobi. Tayyor mahsulot va uning sotilishini hisobga olish. Xususiy kapital hisobi. Majburiyatlar hisobi.

5. Moliyaviy natijalar hisobi. Moliyaviy hisobotlarni tuzish va taqdim etish.

Amaliy mashg‘ulotlar multimedia qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akademik guruhga bir professor-o‘qituvchi tomonidan o‘tkazilishi zarur. Mashg‘ulotlar faol va interfaktiv usullar yordamida o‘tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo‘llanilishi maqsadga muvofiq.

IV. Mustaqil ta’lim va mustaqil ishlar.

Mustaqil ta’lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Buxgalteriya hisobining paydo bo‘lishi va rivojlanishi.

2. Buxgalteriya balansini va unda ro‘y beradigan o‘zgarishlar.

	<ol style="list-style-type: none"> 3. Buxgalteriya hisobi schyotlar tizimi. 4. Buxgalteriya hisobida ikkiyoqlama yozuv. 5. Biznes jarayonlari va ularni hisobga olish. 6. Hujjatlashtirish va ularning aylanishi. 7. Inventarizatsiya va uni tashkil etish. 8. Buxgalteriya hisobining registrlari va shakllari. 9. Naqd pul mablag‘lari hisobi. 10. Bankdagi hisob-kitob raqamidagi pul mablag‘lari hisobi. 11. Valyuta operatsiyalari hisobi. 12. Mehnat va ish haqi hisobi. 13. Tovar-moddiy zahiralari hisobi. 14. Investitsiyalar hisobi. 15. Asosiy vositalar hisobi. 16. Nomoddiy aktivlar hisobi. 17. Boshqaruv hisobini tashkil qilish. 18. Ishlab chiqarish xarajatlari hisobi. 19. Ustama xarajatlari va ularni taqsimlash hisobi. 20. Tayyor mahsulot va uning sotilishini hisobga olish. 21. Xususiy kapital hisobi. 22. Majburiyatlar hisobi. 23. Moliyaviy natijalar hisobi. 24. Moliyaviy hisobotlarni tuzish va taqdim etish. 25. BHMS va ularni buxgalteriya hisobida tutgan o‘rni. <p>Mustaqil o‘zlashtiriladigan mavzular bo‘yicha talabalar tomonidan referatlar tayyorlash va uni taqdim qilish tavsiya etiladi.</p>
3.	<p style="text-align: center;">V. Ta’lim natijalari / Kasbiy kompetensiyalari</p> <p>Talaba bilishi kerak:</p> <ul style="list-style-type: none"> • asosiy buxgalteriya hisobi tushunchalari va ularning maqsadi to‘g‘risida <i>tasavvurga ega bo‘lishi;</i> <ul style="list-style-type: none"> • buxgalteriya hisobining ob‘ekti, usullari, xo‘jalik mablag‘lari va uning tashkil topish manbalari, aktivlar va passivlarni baholash, buxgalteriya balansi, schyotlar rejasi, invehtarizatsiya, kalkulyatsiya va moliyaviy hisobot shakllariga oid bilim va tushunchalarni <i>bilishi va ulardan foydalana olishi;</i> <ul style="list-style-type: none"> • pul mablag‘lari, valyuta operatsiyalari, mehnat va ish haqi, tovar-moddiy zahiralari, investitsiyalar, asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar, ustama xarajatlar, tayyor mahsulot, xususiy kapital, majburiyatlar, moliyaviy natijalarni hisobga olish va moliyaviy hisobotlarni tuzish va taqdim etish kabi <i>ko‘nikmalariga ega bo‘lishi kerak.</i>

4.	<p style="text-align: center;">VI. Ta’lim texnologiyalari va metodlari:</p> <ul style="list-style-type: none"> • ma’ruzalar; • interfaol keys-stadilar; • seminarlar (mantiqiy fiklash, tezkor savol-javoblar); • guruhlarda ishlash; • taqdimotlarni qilish; • individual loyihalar; • jamoa bo‘lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.
5.	<p style="text-align: center;">VII. Kreditlarni olish uchun talablar:</p> <p>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to‘liq o‘zlashtirish, tahlil natijalarini to‘g‘ri aks ettira olish, o‘rganilayotgan hisobga jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat uchun berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo‘yicha yozma ishni topshirish.</p>
6.	<p style="text-align: center;">1.Asosiy adabiyotlar</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Egamberdiyeva S.R. Moliyaviy va boshqaruv hisobi. O‘quv qo‘llanma. - T.: Fan va texnologiya, 2019. 289 b. 2. Isroilov B.I., Xolbekov R.O. Buxgalteriya hisobi nazariyasi. Darslik.- Toshkent: “Tafakkur” nashriyoti, 2020. 240-b. 3. Karimov A., Kurbanbayev J., Jumanazarov S. Buxgalteriya hisobi. Darslik. -T.:Iqtisod-moliya, 2019. - 512 b. 4. Hoshimov B. Buxgalteriya hisobi nazariyasi. Darslik. T.: “Yangi asr avlodi”, 2004. 279 b. 5. D.E. Norbekov, A.N. To‘rayev, Sh.Sh. Rahmonov. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari. O‘quv qo‘llanm. - T.:Iqtisod-moliya, 2019. 332 b. <p style="text-align: center;">Qo‘shimcha adabiyotlar</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. – T.: “O‘zbekiston” NMIU, 2017. - 104 b. 2. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash - yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – T.: “O‘zbekiston” NMIU, 2017.-48 b. 3. Karimov A., Muqumov Z., Tulayev M. Kurbanbayev J., Raxmonov Sh. Buxgalteriya hisobining axborot tizimlari. O‘quv qo‘llanma. -T.: Iqtisod-moliya, 2018. -192 b. <p style="text-align: center;">Axborot manbaalari</p> <p>www.gov.uz – O‘zbekiston Respublikasi hukumat portal.</p> <p>www.lex.uz - O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi.</p>

	<p>www.mf.uz - O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi rasmiy sayti. www.soliq.uz - O'zbekiston Respublikasi Davlat Soliq qumitasi rasmiy sayti.</p> <p>www.ziyonet.uz - Axborot – ta'lim portal. www.sciencedirect.com. –ommabop ilmiy jurnallar sayti. www.scopus.com. - ommabop ilmiy jurnallar sayti.</p>
7.	Qarshi muhandislik-iqtisodiyot institute tomonidan ishlab chiqilgan va tasdiqlangan.
8.	<p>Fan/modul uchun ma'sul:</p> <p>Ravshanov Alisher Bobaqulovich-QarMII, Buxgalteriya hisobi va audit kafedrasida katta o'qituvchisi.</p>
9.	<p>Taqrizchilar:</p> <p>1. Egamberdiyeva Salima Raimovna-QarMII, Buxgalteriya hisobi va audit kafedrasida dotsenti, iqtisod fanlari nomzodi.</p> <p>2. Qurbonov Alisher Boboqulovich. -Qarshi MII, "Innovatsion iqtisodiyot" kafedrasida dotsenti, iqtisod fanlari nomzodi.</p>